



Hojiyev Rasulbek Boynazar o'g'li,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

OILADA KREATIVLIK XUSUSIYATILARNI SHAKLLANTIRISH TAJRIBASINING KONSTRUKTIV FUNKSIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila va oilaviy tarbiya masalalari, oilada bola tarbiyasi va ularning bilimi, tafakkuri, dunyoqarashi, kreativlik xususiyatlari shakllanib borishi ochib beriladi. Oila tarbiyasi asosida yosh avlodda kreativlik xususiyatlarini shakllantirishning bir nechta jihatlariga urg'u beriladi. Yoshlarda kreativlik xususiyatlarini qaror toptirishda xorijiy davlatlar tajribasi, Sharq mutafakkirlarining qarashlari yoritilgan. Shuningdek, yoshlarda kreativlik xususiyatlarini shakllantirishda ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotning ayrim natijalari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы семьи и семейного воспитания, воспитания детей в семье, формирования их знаний, мышления, мировоззрения, творческих качеств. Семейное воспитание фокусируется на нескольких аспектах формирования творческих качеств у подрастающего поколения. Опыт зарубежных стран и взгляды восточных мыслителей проливают свет на определение особенностей креативности молодежи. В статье также обсуждаются некоторые результаты исследования, проведенного среди родителей по формированию творческих качеств у молодых людей.

Annotation. This article discusses the issues of family and family education, raising children in the family and the formation of their knowledge, thinking, worldview, and creative traits. Emphasis is placed on several aspects of the formation of creative traits in the younger generation based on family education. The experience of foreign countries and the views of Eastern thinkers in determining creative traits in young people are highlighted. Also, some results of a study conducted among parents in the formation of creative traits in young people are considered.

Tayanch so'zlar: oila, yoshlar, kreativlik, oila funksiyasi, ta'lim muassasalari, yetuk shaxs.

Ключевые слова: семья, молодежь, творчество, функция семьи, образовательные учреждения, зрелая личность.

Keywords: family, youth, creativity, family function, educational institutions, mature personality.

Kirish. Shaxsda kreativlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni bu, asosan, dinamik faoliyat hisoblanadi, u hamisha o'zgarishga egadir. Yoshlarni aqliy va axloqiy omillar bilan qurollantirish oila hamda ta'lim tizimlari hamkorligida amalga oshadi. Ma'lumki, kuchli va ma'nan yetuk, intellektual qobiliyatli shaxslar oilalarda yetishib chiqishadi.

“Yoshlarning keng qatlamlariga taalluqli bo'lgan dolzarb masalalar, avvalo, yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni katta maqsadlar sari safarbar etish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, qisqacha aytganda, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'zini haqiqiy yoshlar tashkiloti sifatida ko'rsata olmadi”¹. Shu jihatdan ham bugungi kunda oilada totuvlik va sog'lom, ma'naviy muhitni vujudga keltirish hamda uni tarkib toptirish davlat ahamiyatiga molikdir. Chunki har bir insonning turmush tarzida yuz beradigan barcha voqeliklar, ya'ni undagi yutuq va o'zgarishlar, qarama-qarshiliklar oilada o'z aksini topadi. Shuning asnosida oila va oilaviy tarbiya masalalari hamisha dolzarb muammo bo'lib qolaveradi. “Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angelaydi, his etadi”².

Asosiy qism. Pand-nasihatlar va o'z donishmandligini namoyon etuvchi og'zaki va yozma ijod namunalarida ham farzand tarbiyasi va ularning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish borasidagi falsafiy ta'limotlari bugungi kunda yoshlar tarbiyasi uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Xususan, “Kalila va Dimna” hind masallarida oilada farzand tarbiyasi va ijtimoiy turmushning ba'zi bir masalalari talqin etiladi. Masalani birinchi so'z boshida shunday izohlanadi, “(Ibn ash-Shoh al-Forsiy nomi bilan mashhur bo'lgan Behnud ibn Sahvoning muqaddimasi) ushbu buyuk asarni yaratgan afsonaviy faylasuf Beydabo shohga qarata shunday deydi: “Shohim, mening fikrimcha, insonni butun hayvonlardan yuqori qo'ygan, uni dunyoning butun sirlaridan voqif etgan to'rt narsa bordir: hikmat, aql, qanoat va adolat.

Ilm tahsil etmoq, savod chiqarmoq va har narsani atroflicha tushuna bilmoq – hikmatga; tadbir, sabr, nazokat, marhamat – aqlga; hayo, oliyjanoblik, o'zini qo'lga olmoq va o'zining haq-huquqini bilmoq – qanoatga; to'g'rilik, va'daga vafo, ezgu ishlar qilmoq va yaxshi xosiyatli bo'lmoq – adolatga tegishlidir. Bu sifatlarning barisi bir odamda mujassam

Pand-nasihatlar va o'z donishmandligini namoyon etuvchi og'zaki va yozma ijod namunalarida ham farzand tarbiyasi va ularning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish borasidagi falsafiy ta'limotlari bugungi kunda yoshlar tarbiyasi uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Xususan, “Kalila va Dimna” hind masallarida oilada farzand tarbiyasi va ijtimoiy turmushning ba'zi bir masalalari talqin etiladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2017. – B. 506-507.

² Мунавваров А.К. Маъмуров М. Япроқ илдизидан қувват олади. – Тошкент, 1990. – Б. 64.

**Sharq
mutafakkirlardan
Forobiy
o'zing falsafiy
qarashlarida inson,
davlat, jamiyat
va oila o'zaro
munosabatlarda
rivojlana borishi
hamda kamolotga
erishishi uchun
zarur bo'lgan
iqtisodiy va ruhiy
ehtiyojlarini
qondirish
zarurligini
ko'rsatib beradi.
Binobarin, kishilar
yolg'iz holatda
baxtli hayot
kechira olmaydi:
"Har bir inson
o'z tabiati bilan
shunday tuzilganki,
u yashash va
oliy darajadagi
yetuklikka
erishmoq uchun
ko'p narsalarga
muhtoj bo'ladi.**

bo'lsa, dunyodagi eng buyuk saodat ham uni gangitib qo'ymaydi, eng katta baxtsizlik ham uni sarosimaga sola olmaydi"³. "Kalila va Dimna" mana shunday mustahkam tarbiyaviy xulosalari hamda akseologik, mantiqiy, axloqiy va falsafiy umumlashmalari bilan necha asrlardan beri minglab avlodlarning to'g'ri kamol topishiga ko'maklashib kelmoqda.

Sharq mutafakkirlardan Forobiy o'zing falsafiy qarashlarida inson, davlat, jamiyat va oila o'zaro munosabatlarda rivojlana borishi hamda kamolotga erishishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va ruhiy ehtiyojlarini qondirish zarurligini ko'rsatib beradi. Binobarin, kishilar yolg'iz holatda baxtli hayot kechira olmaydi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoji tug'iladi"⁴. Boshqa bir tarzda allomaning izohlashicha, oila, shaharni inson tanasidagi a'zolariga qiyoslab, bu a'zolarining tabiati, holati va harakatiga ko'ra turlicha bo'lsa ham, lekin yagona maqsad, ya'ni inson tanasi faoliyatini ta'minlash maqsadida o'zining ma'lum ishini bajarishi haqida ma'lumot beradi. Demak, "Biror mamlakatda o'nlab shaharlar, bu shaharlarning har birida yuzlab va minglab oila va xonadonlar yashashi tabiiy hol bo'lib, garchi bu uy yoki shaharlar har xil, biri ikkinchisini takrorlamaydigan bo'lishiga qaramay, ular o'zaro birikib, shahar yoki mamlakatni tashkil etadilar hamda uni takomillashtiradilar"⁵. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida fozillikka erishish va shahar hokimi lavozimida bo'lgan shaxs quyidagi o'n ikki fazilatlarni o'zida namoyon etishi lozimligini ko'rsatib beradi:

birinchidan, "o'ta sog'lom bo'lishi, shu tufayli hokimlik vazifalarini oson bajarishi lozim; *ikkinchidan*, nozik farosatli bo'lib, fikrlarni tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur; *uchinchidan*, u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarini xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi zarur; *to'rtinchidan*, u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlar nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur; *beshinchidan*, u fikrini ravshan tushuntira olishi, chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur; *oltinchidan*, u ustozlardan ta'lim olishi, bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur; *yettinchidan*, taom yeyishda, ichimlikda,

³ Калила ва Димна. — Тошкент: «Адабиёт ва санъат». 1987. — Б. 15–16.

⁴ Форобий. Рисолалар. — Тошкент: Фан, 1975; Форобий. Фозил одамлар шахри. — Тошкент: А. Қодирий. 1993.

⁵ Форобий, Рисолалар. — Тошкент: Фан, 1974. — Б. 103.

ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladigan bo'lishi, qimor va boshqa o'yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur; sakkizinchidan, u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur; to'qqizinchidan, u o'z qadrini biluvchi va nomusli, oriyatli odam bo'lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug'ma oliyhimmat bo'lishi, ulug' oliy ishlarga intilishi zarur; o'ninchidan, u bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan, mol-dunyo ketidan quvmaydigan bo'lishi zarur; o'n birinchidan, u tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'ruvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur; o'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgan holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur; o'n ikkinchidan, o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur"⁶.

Bu pandnomalar bugungi kunda ham o'zini amaliy ahamiyatini yo'qotmagan, bu axloqiy fazilatlarini har bir ota-onalar, avvalo, o'z xususiyatlarida namoyon etishi, qolaversa, farzandlarida tarbiyalab borsalar, bugungi kunda oilalarda mavjud muammolar hal etilgan va mamlakatimiz yanada rivojlangan bo'lar edi. Shu bilan birga, Yusuf Xos Hojibning falsafiy g'oyalarida shaxsni bilimi va uni zakovat qadri bo'yicha quyidagicha izohlab o'tadi: "Fozil bilim, zakovat qadrini hamma inson ham bilavermaydi. Zar qadrini zargar bilgani kabi bilim qadrini ham dono, zakolargina biladi. Demak, bilimdon bo'lish, bilimni anglash uchun ham zakovat, onglilik, iste'dod zarur"⁷.

Hozirgi tarixiy vaziyat ta'lim tizimlarini rivojlantirishi konsepsiyasidan kelib chiqqan holda "oilalarda ota-onalar bilan bolalarning yoki bolalar bilan ota-onalarning o'zaro muloqotlari, munosabatlarini, oila bilan maktab o'rtasidaga konsepsiyalarni o'z ichiga oladigan, ilmiy asoslangan, yangi metodologik shart-sharoitni vujudga keltiradigan namunaviy oila tizimi konsepsiyasini ishlab chiqish zaruriyati vujudga kelmoqda. Bu konsepsiyada milliy xususiyatlar va milliy mentalitet talablaridan kelib chiqqan holda etnik, hududiy, demografik xususiyatlar inobatga olingan holda oilaviy tarbiyaning mazmun-mohiyati ko'rsatib berilishi zarur. Chunki bugungi kunda davlatimiz tamonidan olib

Bu pandnomalar bugungi kunda ham o'zini amaliy ahamiyatini yo'qotmagan, bu axloqiy fazilatlarini har bir ota-onalar, avvalo, o'z xususiyatlarida namoyon etishi, qolaversa, farzandlarida tarbiyalab borsalar, bugungi kunda oilalarda mavjud muammolar hal etilgan va mamlakatimiz yanada rivojlangan bo'lar edi.

⁶ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри — Тошкент: Абдулла Қодирий, 1993. — Б. 159–160;.

⁷ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. — Тошкент: Фан, 1990. — 32 б.

Har bir shaxsning barkamol inson sifatida namoyon bo'lishi jamiyat va ijtimoiy muhit ham katta rol o'ynaydi. Oilada farzand tarbiyasini olib borish masalalari borasida respublikamizda ko'pgina olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar.

borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi ham yetuk, axloqan pok, aqlan yetuk, iqtidorli va bilimli yosh avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Oilaning an'anaviy funksiyalari: reproduktiv, tarbiyaviy, xo'jalik yuritish, iqtisodiy, nazorat qilish, o'z mavqeyiga ega bo'lish, dam olishni to'g'ri tashkil etish, emotsional, yoshlarni jinsiy hayotga tayyorlashlarga bo'lingan"⁸.

Hozirgi davrda oila o'zining muhim funksiyalarini amalga oshirib boradi. "Oilaning funksiyalari xilma-xilligining o'ziyoq oila tarbiyasining murakkabligidan dalolat beradi. Bu tarbiyada, avvalo, ota-onaga xos ma'naviy xususiyatlar, qarindosh-urug'chilik, qo'ni-qo'shnihilik omillari ham borki, ularsiz oila tarbiyasini to'la-to'kis tasavvur etib bo'lmaydi. Oila tarbiyasini oilaviy munosabatlar shakllantiradi. O'z navbatida, oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ma'naviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boraveradi"⁹. Bunday yosh avlod esa eng avvalo, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, sog'lom va totuvligi mustahkam oilada kamol topadi. Oilalarni yanada mustahkamlash hamda yosh avlod tarbiyasi, ularni barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishda tarbiyaviy jihatlariga e'tibor berish va g'amxo'rlik qilish kelajak avlodni yetuk shaxs bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Bu esa yoshlarni ta'lim-tarbiya olishiga bog'liqdir. Bu borada mutafakkir Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot yo najot-yo halokat yo saodat yo falokat masalasidir"¹⁰ iborasi alohida ahamiyatga egadir.

Har bir shaxsning barkamol inson sifatida namoyon bo'lishi jamiyat va ijtimoiy muhit ham katta rol o'ynaydi. Oilada farzand tarbiyasini olib borish masalalari borasida respublikamizda ko'pgina olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Aynan Ergash G'oziyev va Vasila Karimovalarning tadqiqotlarida oilalar va ularning ijtimoiy-psixologik jihatlariga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, ular oila muhitidagi milliy qadriyatlarning o'zni va roli, farzand tarbiyasidagi ba'zi bir ijobiy va salbiy jihatlarini, oilaga putur yetkazuvchi ba'zi bir muammolar, er-xotin o'rtasida yuzaga keladigan salbiy omillar ochib beriladi. Farzand tarbiyasida oila va undagi muhit masalalarini faylasuf olimlardan M.Sanginov, E.Usmanov va B.Umarovlarning tadqiqot ishlari uchratishimiz mumkin.

Faylasuf M.Sanginov "Sotsiologik turmush tarzida oilaviy-maishiy aloqalarning dialektikasi" nomli asarida, "Oila va uning ma'naviy-

⁸ Сайдалимева Н. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари: Фалсафа фан ном. дис. автореф. — Тошкент: ЎЗМУ, 2005. — Б. 12–13.

⁹ Оила, маънавият ва ижтимоий ҳаёт. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. — Тошкент: 1998. — Б. 3.

¹⁰ Авлоний Абдулла. Тошкент Тонги. — Тошкент: Ф.Фулом, 1979. — 246 б.

tarbiyaviy jihatlari hamda farzandni kamolotga yetkazishda ijtimoiy muhitning o'rnining" falsafiy jihatlari e'tiborni qaratadi. B.Umarov hamda E.Usmanovlarning tadqiqotlarida bolalar suitsidining yosh, sotsial, psixologik xususiyatlari, o'zbek xotin-qizlar suitsidining yosh va ijtimoiy ruhiy xususiyatlari kabi masalalarining falsafiy jihatlari ko'rsatib beradi. M.N.Shmelevaning ta'kidlashicha, "Hayotiy yo'l nazariyasi jamiyatning bir bo'lagi bo'lmish oila o'z rivojlanishining turli bosqichlari o'tishida harakat strategiyalarining o'zgarishi tashqi tarixiy sharoitlarga bevosita bog'liq bo'lgan holda ikki xil o'ringa ega bo'lgan: bir tomondan, u individlarning ijtimoiy o'zgarishlarga adaptatsiyasini osonlashtiruvchi vositachi, boshqa tomondan esa uning o'zi o'sha o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi omil bo'lgan"¹¹.

Bugungi kunda oilalarda farzand, avvalambor, yetuk va sog'lom, bilimli, aqlli, ma'naviy tarbiyaga ega avlod bo'lib voyaga yetishi lozimdir. Bunda yosh avlodning yuksak darajada shakllanishi va rivojlanishida esa avvalo, oilada farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish zarur. "Oila farzand tarbiyasi deganda, shaxsning rivojlanishi uchun barcha qulayliklar hamda shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni kasb-koriga qiziqishlarini va ijtimoiy hayotga faollikni ta'minlash uchun ularda tayyorlashga, har tamonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Hozirgi davrda yoshlarda kreativlik xususiyatlarini shakllantirishni birinchi makoni bu oila hisoblanadi. Oila tarbiyasi – bu ijtimoiy muhit va tarbiya faoliyatining shunday bosqichiki, u shaxsning keyinchalik butun hayoti faoliyatida oladigan ma'naviy va hayot saboqlari, bilim darajalari shakllanishi uchun asos va intellektini rivojlantirishda poydevor funksiyasini o'taydi"¹².

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, oila tarbiyasi asosida yosh avlodda kreativlik xususiyatlarini shakllantirishni quyidagi yo'nalishlarda izohlash mumkin:

- shaxsda korrelyatsion bilimlar asosida ularda iqtisodiy bilim va dunyoqarashni shakllantirish;
- o'z ustida ishlash, o'z xatolarini anglash, atrofdagi narsalar bilan o'zaro munosabatga kirisha olish hamda barcha xatti-harakatlarini anglamoq lozim.

Oilada farzandni hayotiy muammolarni hal etishda kreativlik xususiyatlaridan foydalanishi, shu bilan birga, iqtidorini namoyon etishi uchun izlanuvchanlik xususiyatlarini aks etirishi zarur. O'zbek

Bugungi kunda, oilalarda farzand, avvalambor, yetuk va sog'lom, bilimli, aqlli, ma'naviy tarbiyaga ega avlod bo'lib voyaga yetishi lozimdir. Bunda yosh avlodning yuksak darajada shakllanishi va rivojlanishida esa avvalo, oilada farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

¹¹ Шмелева М.Н. Развитие внутренних связей в современной городской семье русских Центральной России.: Сб. Семья. Традиции и современность. – М., 1990. – С. 223.

¹² <http://elibrary.ru/item.asp?id=11714630>

***Ijodiy kreativlik
voqelikning
ekstravertiv
voqelikka aylanishi
ma'lum bir
motivlar, stimul
va ustanovkalar
orqali ro'y beradi.
Mazkur psixologik
omillarni
anglamaslik,
bilmaslik kreativ
faoliyatni
noobyektiv
baholashni
keltirib chiqaradi.
Ularning har
biri sotsiologiya
va psixologiyada
alohida ma'naviy
ruhiy hol sifatida
tadqiq etiladi.***

oilasida shaxsning kreativlik xususiyatlarini shakllantirishda bolani ijod qilishga undovchi mashg'ulotlar va ota-ona o'z farzandlari bilan alohida mashg'ulotlar olib boradi. Kreativlikning ekstravertiv, ya'ni ijtimoiy borliqqa yo'naltirilganligi bir nechta nazariy-falsafiy jihatlarni asoslab beradi. Bularni ba'zi bir ilmiy ta'limotlarga, tasavvurlar yoki dunyoqarashlarga ega bo'lmay muammoning mazmuni va ahamiyatini anglash qiyin. Mazkur masalalar quyidagilardan iborat:

– ijodiy kreativlik voqelikning ekstravertiv hodisaga aylanishi qanday harakatlar, stimul yoki ustanovkalar asosida yuz beradi;

– tashqi deterministik munosabatlar, kreativ harakatga yo'naltiruvchi ichki ruhiy-psixologik omillarni o'zining ba'zi bir qonunlariga muvofiq harakatga keltiradi;

– yosh avlodning kreativ harakati faqat ekstravertiv xususiyatga egaligi yoki unda intravertiv jihatlar ham mavjudligi.

Ijodiy kreativlik voqelikning ekstravertiv voqelikka aylanishi ma'lum bir motivlar, stimul va ustanovkalar orqali ro'y beradi. Mazkur psixologik omillarni anglamaslik, bilmaslik kreativ faoliyatni noobyektiv baholashni keltirib chiqaradi. Ularning har biri sotsiologiya va psixologiyada alohida ma'naviy ruhiy hol sifatida tadqiq etiladi. Biz ularni umumiy nom bilan kreativ faollikni “dolzarblashtiruvchi omillar” deb ataymiz, chunki, bizning fikrimizcha, aynan ular inson faoliyatiga yo'naltirilganlik, muhimlik va zarurlik baxsh etadi, uni bor jismoniy va ma'naviy ruhiy kuchini safarbar etib, qo'yilgan maqsadga erishishga undaydi”¹³.

Oilaviy munosabatlarda ota-ona va yosh avlodning o'zaro munosabatlari an'anaviy qadriyatlar asosida ota-onalarning o'ziga xos dunyoqarashi, tafakkur tarzi va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bolalarning individual shaxsiyatini shakllantirish va aqliy faoliyati rivojlanishida asosiy rol o'ynaydigan muloqot va munosabatlarga bo'lgan ehtiyojlar asosida amalga oshiriladi. “Odamning fe'l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash lozim, – deb yozadi olim. Bolalarni o'ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o'z qadr-qimmatini, shaxsini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shu bilan birga, yon atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o'rgatmoq kerak. Bolalarni shunday tarbiya qilish lozimki, baxtga bo'lgan intilishlari hech qachon xazon bo'lmasin, so'nmasin, balki ko'karsin”¹⁴. Bu borada biz o'tkazilgan tatqiqotimiz doirasida ota-ona respondentlarga “farzandingizga uning kreativ g'oyalarini amalga

¹³ Российская социологическая энциклопедия. Под ред. Г.В.Осипова. – М.: НОРМА ИНФРА М., 1998. – С. 301.

¹⁴ Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 86 б.

oshirishda qanday yordam berasiz?” degan mazmunda savol berilganida, deyarli har uchinchi respondent (31,9%) fikrlarini hurmat qilaman va ularni doimo eshitishga harakat qilaman deb javob bergan.

1-jadval

Farzandingizga uning kreativ g'oyalarini amalga oshirishda qanday yordam berasiz? (so'ralganlar sonidan % larda)


Javoblar	So'rov natijasi
O'quv materiallarini olib beraman	20,4
Ijodiy loyihalarini rag'batlantiraman	15,3
Fikrlarini hurmat qilaman va u(lar)ni doimo eshitishga harakat qilaman	31,9
U(lar)ni boshqalar bilan solishtirmayman va qobiliyatli ekanligini aytaman	11,5
Telefonlar, planshet va kompyuterlar olib beraman hamda ulardan istaganicha foydalanishiga ruxsat beraman	6
Telefon, planshet va kompyuterdan ko'p foydalanishiga ruxsat bermayman	3
Do'stlari bilan o'yin o'ynashga doimo ruxsat beraman	2,6
Do'stlari bilan o'yin o'ynashiga ruxsat bermayman	0,9
Tez-tez oilaviy dam olishlarga (parkka, bog'larga, tabiat qo'yniga, chet elga va h.k.) olib chiqaman	7,7
Unchalik e'tibor bermayman	0,4
Boshqa turli javoblarni keltirishgan	0,4

Har beshinchi (20,4%) respondent o'quv materiallarini olib beraman degan javobni belgilashgan. Respondentlarning 15,3 foizi ijodiy loyihalarini rag'batlantirishini, 11,5 foizi uni boshqalar bilan solishtirmasligini va qobiliyatli ekanligini aytishini, 7 foizi tez-tez oilaviy dam olishlarga (parkka, bog'larga, tabiat qo'yniga, chet elga va h.k.) olib chiqishini ma'lum qilishgan.

Qolgan respondentlar telefonlar, planshet va kompyuterlar olib berishini hamda ulardan istaganicha foydalanishiga ruxsat berishini (6%), telefon, planshet va kompyuterdan ko'p foydalanishiga ruxsat bermasligini (3%), do'stlari bilan o'yin o'ynashga doimo ruxsat berishini (2,6%) yoki do'stlari bilan o'yin o'ynashiga ruxsat bermasligini (0,9%) keltirishgan.

Ozchilik so'rov ishtirokchilari unchalik e'tibor bermasligini (0,4%) va boshqa turlicha (0,4%) javoblarni qayd etishgan.

Tadqiqot davomida ota-ona respondentlarga “farzandingizning o'qishini nazorat qilish uchun bir kunda qancha vaqtingizni ajratasiz?” degan qabilida savol bilan murojaat qilinganida, ota-onalarning ko'pchiligi (59,1%) bir kunda 1 soat vaqtini ajratishini ma'lum qilishgan.



2-rasm. Farzandingizning o'qishini nazorat qilish uchun bir kunda qancha vaqtingizni ajratasiz? (so'ralganlar sonidan % larda)

Jahon tajribasida ham yoshlarning kreativlik xususiyatlarini tarbiyalashda oilaning o'rni va roli alohida ahamiyatga egaligi aks etadi. Oilaviy munosabatlarda yosh avlodda kreativlik xususiyatlarni shakllantirish jarayonini Yaponiya misolida ko'rib o'tadigan bo'lsak, yapon oilalari ko'pincha o'z farzandlarida fan va texnologiyaga qiziqish uyg'otadi.

Har uchinchi (34,8%) ota-onalar esa 2 soat vaqtini farzandiga ajratishni keltirishgan bo'lsa, ozchilik ota-onalar 3 soat (4,5%) yoki 4 soat (1,5%) vaqtini farzandiga ajratishini qayd etishgan.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida deyarli barcha (94,4%) ota-onalar farzandini o'qiydigan ta'lim muassasasida kreativlikni rivojlantirish bilan bog'liq darslar yoki tadbirlarga borishga undashi ma'lum bo'ldi. Faqatgina ozchilik (5,6%) ota-onalar farzandini o'qiydigan ta'lim muassasasida kreativlikni rivojlantirish bilan bog'liq darslar yoki tadbirlarga borishga undamasligini ma'lum qilgan.

Mazkur savoldan kelib chiqqan holda ota-onalarga "farzandingiz o'zi o'qiyotgan ta'lim muassasasida kreativlikni rivojlantiradigan dars va tadbirlar haqida sizga aytib beradimi?" degan savol berilganida, ko'pchilik ota-onalar (67%) "ha, doimo" degan javobni bildirishgan bo'lsa, aksariyat ota-onalar (29,7%) esa "ha, ba'zan" deb hisoblashgan. 3,3% ota-onalar "yo'q" degan javobni keltirishgan.

Jahon tajribasida ham yoshlarning kreativlik xususiyatlarini tarbiyalashda oilaning o'rni va roli alohida ahamiyatga egaligi aks etadi. Oilaviy munosabatlarda yosh avlodda kreativlik xususiyatlarni shakllantirish jarayonini Yaponiya misolida ko'rib o'tadigan bo'lsak, yapon oilalari ko'pincha o'z farzandlarida fan va texnologiyaga qiziqish uyg'otadi. Ular bolalariga robototexnika, ilmiy loyihalar va dasturlash kabi sohalarida bilim va ko'nikmalari orqali ularning kreativligini rivojlantirishga yordam beradi. Yapon oilalari ko'pincha o'z farzandlarida fan va texnologiyaga qiziqish uyg'otadi. Ular bolalariga robototexnika, ilmiy loyihalar va dasturlash kabi sohalarida bilim va ko'nikmalari orqali ularning kreativligini rivojlantirishga yordam beradi¹⁵.

¹⁵ <https://www.prweek.com/article/1356535/opinion-three-secrets-behind-japans-creativity#:~:text=A%20survey%20by%20Adobe%20rated,The%20answers%20are%20not%20clear.>

Ma'lumki, oiladagi ochiq muloqot – bu oilada sevgi, ishonch va sadoqat tuyg'ularini kuchaytiradigan jarayon. Ushbu muloqot uslubi bolalarning hissiy bilishini rivojlantirishga, o'zlarini ifoda etishga va sog'lom munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Shuning uchun ham oilada ota-ona farzandlari bilan ochiq muloqotni o'rnatishi muhimdir. Bolalar bilan samimiy muloqot qilish ularga o'z his-tuyg'ularini ifoda etish va fikrlarini baham ko'rishga imkon beradi. Aynan yapon oilalarida ota-onalar o'z farzandlari bilan imkon qadar ochiq muloqot qilishga doimo e'tibor qaratishadi. Ota-onalarning o'z farzandlariga namuna bo'lishi bolalarda qadriyatlar, xatti-harakatlar va munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bolalar odatda o'z muhitida kuzatgan va boshdan kechirgan xatti-harakatlarini to'g'ridan to'g'ri kattalardan o'rganadilar. Shuning uchun ota-onalar tomonidan ko'rsatiladigan xatti-harakatlar bolalarning xarakteri rivojlanishiga yuqori ta'sir etadi. Ota-onalar o'z farzandlariga farzandlari qilishi kerak bo'lgan ishlar va xatti-harakatlarni o'zlari ko'rsatish orqali o'rnak bo'ladilar. Chunki bolalar ko'pincha kattalardan o'rganadigan xatti-harakatlarga taqlid qilishadi.

Oilada bolalarni mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga o'rgatish ularga mustaqillikka erishish va o'z ishlarini boshqarishga yordam beradi. Yapon oilalarida yoshlikdanoq oddiy topshiriqlar berish orqali bu jarayon ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlab boriladi.

G'arb mamlakatlarida bolalarning yetuk shaxs bo'lib rivojlanishlari uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi. Ota-onalar intizom yoki qat'iy rejimga kam e'tibor berishadi. Ular uchun bolaning xavfsizligi birinchi o'rinda turadi. Kattalar bolalarning fikrlariga quloq solib, aksariyat holda o'z fikrlarini o'zgartirishlari ham mumkin.

Xususan, "Amerika Qo'shma Shtatlaridagi erkinlik bola tarbiyasida ham o'z aksini topgan. Onalar farzandlarining har soniyalik qiziqishlari va inijliklarini qondirishga tayyordirlar. Aksariyat bolalar 4-5 yoshlarida o'yinchoqlarning barcha turi bilan tanishishadi, ko'pincha amerikalik oilalarning garaj va omborxonalarida bir marotaba o'ynalgan o'yinchoqlar bilan to'lib-toshadi. Ikkinchi tomondan, go'dakligidanoq amerikalik bolakaylar "Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqllisan, eng qobiliyatlisani", degan so'zlarni har kuni eshitgan holda o'sishadi. Maqsad – mustaqil insonni tarbiyalash. Agarda bola xato qilsa, uni urushmay: "Yana bir marotaba harakat qilib ko'r! Sen, albatta, buni uddalaysan! Chunki sen zo'rsan!" deya qo'llab-quvvatlanadi. Albatta, bunday yondashuv kelgusida o'zining mevasini beradi"¹⁶.

G'arb mamlakatlarida bolalarning yetuk shaxs bo'lib rivojlanishlari uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi. Ota-onalar intizom yoki qat'iy rejimga kam e'tibor berishadi. Ular uchun bolaning xavfsizligi birinchi o'rinda turadi. Kattalar bolalarning fikrlariga quloq solib, aksariyat holda o'z fikrlarini o'zgartirishlari ham mumkin.

¹⁶ Abidov B.K. Maktabgacha ta'lim (xorijiy mamlakatlar tajribasi) // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2017. – №11. – B. 35; <https://slidetodoc.com/manaviyaxloqiy-tarbiya-reja-1-manaviy-axloqiy-tarbiyaning-maqsad>

***Farzandlarida
kommunikabellikni
rivojlantirish
maqsadida
onalar ularni
rivojlantirish
guruhlariga olib
borishadi. Bolalar
bog'chalari
asosan, bolalarni
jamoada o'zini
tutish, muloqotda
bo'lishga
o'rgatadi, yozish
va o'qish faqatgina
maktabdan boshlab
o'qitiladi.***

Germaniyada bolalarning rivojiga uch yoshdan boshlab katta e'tibor beriladi. Onalar o'z farzandlarini boshlang'ich bosqichda haftada bir marta, kattaroq bo'lganlarida bir necha marotaba maxsus rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Maqsad jamoa bo'lib o'ynash, o'zaro muloqotga o'rgatishdir.

Bolalarga kichik yoshida televizor ko'rishga ruxsat berilmaydi va iloji boricha soat 20.00 da uxlashga yotqizishadi, chunki bolalarni erta uyg'onishga, kichik yoshidanoq o'z kunini rejalashtirish, muhim sanalar (qarindoshlarning tug'ilgan kunlari)ni yodda saqlash, o'z xarajatlarini nazorat qilishga o'rgatishadi.

Farzandlarida kommunikabellikni rivojlantirish maqsadida onalar ularni rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Bolalar bog'chalari, asosan, bolalarni jamoada o'zini tutish, muloqotda bo'lishga o'rgatadi, yozish va o'qish faqatgina maktabdan boshlab o'qitiladi. Bola go'dakligidanoq enaga nazoratida o'zi istagan ishni qiladi, o'qish kichikintoy uchun foydali va yoqimli bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi, har bir bolaning iqtidoriga qarab fanlarni tanlashga harakat qilinadi¹⁷.

Finlyandiyada ota-onalar bolalar tarbiyasida ko'pincha ularni ochiq havoda o'ynashga da'vat etiladi va bu orqali ularning tabiat bilan aloqasi mustahkamlanadi. Piyoda sayr qilish, lager va boshqa tabiat tadbirlari bolalarga o'z kreativligini kashf qilish va mashq qilish imkoniyatini beradi¹⁸, deb hisoblashadi. "Finlarga ko'ra o'yin bolani rivojlantiruvchi asosiy vositadir. Oilada, ta'lim muassasalarida, jamoat joylarida bolalar uchun alohida o'yin maydonchalari tashkil qilingan. Ota-onalarning o'z farzandlariga nisbatan munosabati jarayonidan doimo ijtimoiy xizmat xodimlari xabardor bo'lib turishadi. Biror ishkal chiqsa yoki qo'shnilar farzandga nisbatan nohaqlik bo'layotgani haqida arz qilsa, ota-onalar javobgarlikka tortiladi"¹⁹.

Finlyandiyada odatda ota-onalar farzandlarini yangi narsalarni o'rganishlariga targ'ib qiladi va o'z qiziqishlariga mos bo'lgan narsalarni o'rganishlariga ruxsat beriladi²⁰. Bu bolalarga o'z loyihalarini taqdim etishga turtki bo'ladi hamda kreativ fikrlashga undaydi.

¹⁷ Abdusamatova N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish masalasining jahon mamlakatlari misolida tahlili // Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami 2023. – B. 208.

¹⁸ Kosunen S. Families and the social space of school choice in urban Finland. Helsinki 2016. – P. 56.

¹⁹ Abidov B.K. Maktabgacha ta'lim (xorijiy mamlakatlar tajribasi) // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2017. – №11. – B. 35.

²⁰ Kosunen S. Families and the social space of school choice in urban Finland. Helsinki 2016. – P. 56.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ayonki, xorij tajribalarida kreativlik va izlanishlarga moyil iqtidorli yoshlarga e'tibor qaratiladi. "Farzand tarbiyasida "men" va "biz" manfaatdorlik yoki antagonist jihatlar ajralib turmaydi, ammo haqiqiy ijodkor, yaratuvchanlik, ixtirochi yoki kashfiyotchi o'z "men"ini unutmaydi. "Men" va "biz" orasidagi falsafiy dialektik aloqadorlik ba'zan bahs, ba'zan izlanish va ijodda, hamisha so'ngisining foydasiga hal bo'lib kelgan"²¹. Bu harakat mexanizmlardan nafaqat davlat, jamiyat, shuningdek, inson, yaratuvchi, innovator ham manfaatdorlikka ega bo'ladi. Faylasuf N.A.Berdyayev "ijodiy jarayonlarni personalizm, ilohiyat va transendent bilan bog'laydi"²². Mavjud ijtimoiy falsafiy va ilmiy qarashlardan kelib chiqib, yuqoridagi qonuniyatlarni kontekstual, eksperimental va komponentli izlanishlar orqali aniqlash mumkin, deb hisoblaymiz"²³. Ilmiy tadqiqotlarning mazkur jihatlari, metodlari kreativlikda turli omillarda keladi. Misol tariqasida, kontekstual usul aniq bir yo'nalishda vujudga keladigan muaamolarni yangi, kashfiyot yoki ixtiro asosida namoyon qilishga yordam beradi.

Xulosa. Xullas, yoshlarda kreativ xususiyatlari ekstravertiv xususiyatga ega bo'lsa-da, u yaratuvchanlik, ya'ni ijodkor insondan, uning ruhiy-psixologik hayotidan ayricha namoyon bo'ladigan jarayon emas. "Innovatsion izlanishlarni, yoshlardagi kreativ faollikni o'lchash masalalari maxsus tadqiqotni taqozo etadi. Bunday mezonlar har bir ijodiy faoliyat turida har xildir. Shuning uchun mutaxassislar ularga differensial yondashish tarafdorlaridir"²⁴. Kreativlik izlanishlarda, harakatchanlikda, faollikda namoyon bo'ladi, bu holatdagi omillar ham bularga qanaqa yo'nalgani bilan aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, oila yoshlarda kreativlik xususiyatlarini shakllantirishda va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasida keltirilganidek, oilada ota-onaning farzandlari bilan to'g'ri muloqot qilishi, oilada bolalarni mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga o'rgatish, erkinlik muhiti yaratilani, o'yin bolani rivojlantiruvchi asosiy vosita ekanligi, jamoa bo'lib o'ynash orqali o'zaro muloqotga o'rgatish, bolalarni yangi narsalarni o'rganishga targ'ib qilish, o'z qiziqishlariga mos bo'lgan narsalarni o'rganishga da'vat qilish yoshlarda kreativlik xususiyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

***Xullas,
yoshlarda kreativ
xususiyatlari
ekstravertiv
xususiyatga
ega bo'lsa-da, u
yaratuvchanlik,
ya'ni ijodkor
insondan, uning
ruhiy-psixologik
hayotidan
ayricha namoyon
bo'ladigan jarayon
emas. "Innovatsion
izlanishlarni,
yoshlardagi kreativ
faollikni o'lchash
masalalari maxsus
tadqiqotni taqozo
etadi.***

²¹ <http://ivo.garant.ru/#/document/3965512>

²² Бердяев Н.А. Философия свободы. Смысл творчества. — М.: Правда, 1989. — С. 511-535.

²³ Голованова В.Г. Философия открытий и изобретений. — Тошкент: Noshir, 2013. — С. 16.

²⁴ Бахранов Л. Бадий танқидчилик ва тасвирий санъат (фалсафий эстетик мушоҳадалар). — Тошкент: Tafakkur, 2016. — Б. 69-79.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2017. – B. 506-507.
2. Мунавваров А.К, Маъмуров М. Япроқ илдииздан қувват олади.. – Тошкент, 1990. – Б. 64.
3. Калила ва Димна. – Тошкент: «Адабиёт ва санъат». 1987. – Б. 15–16.
4. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри – Тошкент: 1993. – Б. 159–160;.
5. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1990. – 32 б.
6. Сайдалимева Н. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари: Фалсафа фан ном.дис. автореф. – Тошкент: ЎЗМУ, 2005. – Б. 12–13.
7. Оила, маънавият ва ижтимоий ҳаёт. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: 1998. – Б. 3.
8. Авлоний Абдулла. Тошкент Тонги. – Тошкент: F.Ғулом, 1979. – 246-б.
9. Шмелева М.Н. Развитие внутренних связей в современной городской семье русских Центральной России.: Сб. Семья. Традиции и современность. – М., 1990. – С. 223.
10. Российская социологическая энциклопедия. Под ред. Г.В.Осипова. – М.: Норма инфра м., 1998. – С. 301.
11. Фитрат А. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 86 б.
12. Abidov B.K. Maktabgacha ta'lim (xorijiy mamlakatlar tajribasi) // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2017. – №11. – B. 35 <https://slidetodoc.com/manaviyaxloqiy-tarbiya-reja-1-manaviy-axloqiy-tarbiyaning-maqсад>
13. Abdusamatova N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish masalasining jahon mamlakatlari misolida tahlili // Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlarini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2023. – B. 208.
14. Kosunen S. Families and the social space of school choice in urban Finland. Helsinki 2016. – P. 56.
15. Abidov B.K. Maktabgacha ta'lim (xorijiy mamlakatlar tajribasi) // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2017.– №11. – B. 35.
16. Бердяев Н.А. Философия свободы. Смысл творчества. – М.: Правда, 1989. – С. 511-535.
17. Голованова В.Г. Философия открытий и изобретений. – Тошкент: Noshir, 2013. – С. 16.
18. Бахранов Л. Бадий танқидчилик ва тасвирий санъат (фалсафий эстетик мушоҳадалар). – Тошкент: Tafakkur, 2016. – Б. 69-79.
19. <http://ivo.garant.ru/#/document/3965512>.
20. <https://www.prweek.com/article/1356535/opinion-three-secrets-behind-japans-creativity>